

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

TURDIYEV MIRZOHID RUSTAMOVICH

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LAZER FIZIKASI
BO'LIMINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

(Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari misolida)

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Termiz– 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Turdiyev Mirzohid Rustamovich

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini
takomillashtirish3

Турдиев Мирзохид Рустамович

Усовершенствование методики обучения раздела физики лазеров в
медицинских высших учебных заведениях.....25

Turdiev Mirzokhid Rustamovich

Improvement of the teaching methods of the laser physics section in medical
higher educational institutions49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published work.....53

TURDIYEV MIRZOHID RUSTAMOVICH

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LAZER FIZIKASI
BO'LIMINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

(Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari misolida)

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Ped2889 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tersu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalining www.ziyounet.uz manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bozorov Erkin Xodjievich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Yusuf G'aniyevich

pedagogika fanlari doktori, professor

Mo'minov Ramizulla Abdullayevich

fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Yetakchi tashkilot:

Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «15» sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel (376) 221-74-55; Faks: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (198 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel. (376) 221-74-55; Faks: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «7» sentabr kuni tarqatildi.
(2023 yil « » dagi raqamli reestr bayonnomasi)



ely

I.T. Chariyev,

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor.

A.B.Narbayev,

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

I.Allakov,

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, YuNESKO tomonidan qabul qilinib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Zamonaviy fizik tadqiqot ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi, fizik eksperimental bazaning murakkablashuvi, fizik tadqiqot ishlarining globallasuvi, fizikaning turli sohalarda, jumladan tibbiyot tarmoqlarining dolzarb fundamental muammolarda o'zaro hamkorlikda ishlaydigan zamonaviy kompetentli tadqiqotchilarni tayyorlashni taqozo etmoqda.

Dunyoda lazer fizikasi bo'limini o'qitishda axborot texnologiyalari vositasida o'qitish metodikasini takomillashtirish, innovatsion metodlarni aniqlash, talabalarning tibbiy yo'nalishdagi bilimlarini oshirish bilan ularning lazer fizikasiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishni nazarda tutgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish ta'limining amaliy yo'naltirilganligi sababli, ta'lim oluvchining ilmiy-tadqiqotchilik, kreativlik qobiliyatlarini, texnik tafakkurini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-metodik, ilmiy ta'minotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, fundamental fanlar bo'yicha talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini oshiradi. Binobarin, "ta'lim muassasalarida fizika o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish metodlarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ushbu mulohazalar asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'qitishning tashkiliy-metodik asoslarini tadqiq qilish, fundamental va kasbiy fanlarning o'zaro aloqadorlik va o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni tizimlashtirish bilan bog'liq ishlanmalar ko'lamini amalga oshirish zarurati ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 5-maydagi PQ-2956-son "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5032 qarori.

faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarorlarida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fizikaning lazer fizikasi bo'limini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish masalalari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan M.Qurbonov, S.Qahhorov, M.M.Mirinoyatov, A.M.Xudoyberganov, K.A.Tursunmetov, SH.M.Kamolxo'jayev, J.Nurmatov, M.R.Tilovov, M.F.Ziyayeva, D.D.Sharipova ta'limda AKTni qo'llash nazariyasi va metodikasi masalalarining afzalliklari va imkoniyatlari borasida mamlakatimizda B.M. Mirzaxmedov, Q.T.Olimov, A.A.Abduqodirov, Sh.O. Toshpo'latova, R.Ishmuamedov, N.N.Azizxodjayeva, U.Sh.Begimqulov, M.I.Daminov, A.K. Jamolov, Sh.M.Sodiqova va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH davlatlari olimlaridan G.Ya.Myakishev, A.Z.Sinyakov, V.P.Veyko, P.G.Mazein, E.V.Xaranjevskiy, N.F.Kashapov, V.V.Sokolov, V.P. Bespalko, C.Bexterev kabi olimlar tomonidan lazer fizikasi bo'limini o'qitishda pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Xorijlik olimlardan D. B. Hann, Jes Henningsen, S.K.Gupta, [Andreas Döpp](#), RL.Torbeck, M, Moore kabi olimlar hamda tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish muammolarini o'rganishgan hamda amaliyotga joriy etishgan.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish muammosi bo'yicha soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ammo lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish muammosi maxsus tadqiq qilinmagan. Shu sababli tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishni takomillashtirish lozimligini anglatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AIF 2/20 - "Shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va o'qituvchilar malakasini oshirish sifatini yaxshilash" (2019-2021y) loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi: tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish holatini tahlil qilish, talabalarining bilim, ko'nikma, kompetentsiya va malakalarini rivojlantirish uchun o'quv adabiyotining yangi avlodini yaratish imkoniyatini aniqlash;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini elektron ta'lim texnologiyalari orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish modelini takomillashtirish;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitishda o'quv - metodik ta'minotni yaratish va tajriba - sinov ishlarini o'tkazish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, BDTI, SDTU, TTA, TPTI lardan 611 nafar talabalar tajriba – sinov ishlariga jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari dissertatsiyada pedagogik tadqiqot ishlarida qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni nazariy tahlil qilish, anketa so'rovnomalari, kuzatish, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik tajriba-sinov ishlari, baholash, tadqiqot ishlarini matematik-statistik tahlil etish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitishda ta'lim jarayonining tashkiliy va amaliy bosqichlari didaktik ta'minotni (loyihalashtirish, rejalashtiri va tashkil etish, amalga oshirish) virtual laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida rivojlantirish asosida talabalarining bilish, o'zlashtirish imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitishda mental xarita vizual namoyishli o'qitishning metodik ta'minoti (virtual laboratoriya, axborotli dasturlash, videotopshiriqlar) vositasida mazmunli, jarayonli, natijaviy bosqichlari talabalarda individuallik, tashabbuskorlik, kreativlik, jamoaviylik, mustaqil fikrlash sifatlarini rivojlantirish asosida mazmunan takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasi individuallik, tashabbuskorlik, kreativlik va jamoaviylik kabi ijodiy faoliyatini ta'minlovchi tibbiy diagnostik, tibbiy terapevtik va jarrohlik muammolarni yechish jarayonini innovatsion tashkil etish asosida takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limiga oid mavzularini o'qitishda mental xarita o'qitish metodikasini elektron ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish, talabalarining bilish ehtiyoji, anglash va tushinish hamda amaliyotga qo'llash faoliyatlari tayanch kompetensiyalar (interfaollik, texnik tafakkur, hamkorlik

ko'nikmalari, shaxsiy imkoniyatlar)ini qayta modifikatsiya qilish asosida rivojlantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarining fikrlash va kuzatuvchanligini rivojlantirishga, yangi materialni o'rganish va mustahkamlash, xotira, bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini shakllantirishga imkon beruvchi interfaol ta'lim texnologiyalari, nazorat topshiriqlari, test sinovlari va dars ishlanmalaridan mashg'ulot jarayonida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarining nazariy bilimlarini takomillashtirish uchun lazer fizikasi bo'limini o'qitishda "Primenenie lazernogo izlucheniya v meditsine" nomli darslik, "Osnovi meditsinskoy lazernoy fiziki" nomli o'quv qo'llanma, professor-o'qituvchilar va talabalarining lazer fizikasi bo'limini o'qitish bo'yicha metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid mental xarita ta'lim texnologiyasi ilova dasturi yaratilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarining nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirishda "Fizikadan innovatsion ta'lim texnologiyasi" nomli elektron o'quv qo'llanma, "Tibbiy lazer fizikasi asoslari" elektron - o'quv qo'llanmalar "Fizicheskiy osnovi raboti lazerov", "Obshiy voprosi lazernix texnologiy v praktike dermatologa i kosmetologa", "Primeneniy lazerov v flebologii", "Primeri primeneniya lazerov v razlichnix oblastyax meditsini" nomli o'quv - metodik qo'llanmalar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlarining tahlili, yaratilgan o'quv qo'llanmalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki xorijiy tajribalar asosida lazer fizikasi bo'limini o'qitish samaradorligini oshirishning takomillashtirilgan modeli va zamonaviy lazer fizikasi bo'limini (strukturali va ob'yektga yo'naltirilgan) o'qitishda va talabalarining o'zlashtirish ko'rsatgichlarini diagnostik tahlil qilish orqali ochiq axborot-ta'lim muhitini joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan lazer fizikasi bo'limini o'qitishning yangi tuzilishi va mazmuni yaratilganligi, taklif etilgan metodika talabalarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishi, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, bilish faoliyatini faollashtirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirishda elektron o'quv-metodik ta'minotlarning mazmuni va metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitishda ta'lim jarayonining tashkiliy va amaliy bosqichlari didaktik ta'minotini (loyihalashtirish, rejalashtiri va tashkil etish, amalga oshirish) virtual laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida talabalarining bilish, o'zlashtirish, tahlil etish imkoniyatlarini

aniqlashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar va nazariy ma'lumotlar "Primeneniy lazernogo izlucheniya v meditsine" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-624-son guvohnomasi). Natijada, tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitish bo'yicha metodik taminotni amaliy integratsiyalash orqali o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitishda mental xarita vizual namoyishli o'qitishning metodik ta'minoti (virtual laboratoriya, axborotli dasturlash, videotopshiriqlar) vositasida mazmunli, jarayonli, natijaviy bosqichlari talabalarda individuallik, tashabbuskorlik, kreativlik, jamoaviylik, mustaqil fikrlash sifatlarini rivojlantirish "Tibbiy lazer fizika asoslari", "Mental xarita" ta'lim texnologiyalarini qamrab olgan dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish orqali takomillashtirishga oid nazariy g'oyalar "Osnovi medisinskoy lazernoy fiziki" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug'i 356/7-509-son ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limiga oid mavzularini o'qitishda mental xarita elektron ta'lim texnologiyalari orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish asosida talabalarning bilish ehtiyoji, anglash va tushinish hamda amaliyotga qo'llash faoliyatlari tayanch kompetensiyalar (interfaollik, texnik tafakkur, hamkorlik ko'nikmalari, shaxsiy imkoniyatlar) ini qayta modifikatsiya qilish asosida rivojlantirishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizika institutining AM-PZ-2019062031-son "Yadro energetikasi", "Yadro meditsinasi va texnologiyasi", "Radiatsion meditsina va texnologiya" fanlari bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun multimediali darsliklarni yaratish" nomli innovatsion loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zRFAYaFI ning 2021-yil IB/32-21 - son qarori va O'zRFAYaFI 2022-yil 19-maydagi 32-2115-352 son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha fizikani o'qitish sifatini va talabalarning motivatsion faoliyatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 25 ta ilmiy-metodik ishlar nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 7 ta uslubiy qo'llanma, 3 ta elektron o'quv qo'llanmaga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intelektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomalari (№ DGU 11273, № DGU 14800, № DGU 07680) olingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari bo'yicha asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy, 7 tasi respublika jurnallarida chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 131 sahifada tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilangan, tadqiqotning usullari hamda ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot ishining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lazer fizikasi bo'limini o'qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari(OTM)da lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasining o'ziga xosligi, lazer fizikasi bo'limini o'qitishda fundamental va kasbiy fanlarning o'zaro aloqadorligida o'qitish metodikasini qo'llash muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Jahonda, mustaqil davlatlar hamdo'stligi(MDH)da, mamlakatimizda tibbiyot OTMda lazer fizikasi o'qitilishining holati o'rganildi.

Lazer fizikasi bo'limini o'qitishning asosiy qonuniyatlari, xususiyatlari, lazer texnologiyasidan tibbiyotda foydalanishning ilmiy – metodik muammolari dolzarb hisoblanadi. Qator o'quv qo'llanmalarda, ilmiy - tadqiqot ishlarida, darsliklarda lazer fizikasiga tegishli parametrlarning fizik mazmun-mohiyatlariga yetarlicha, chuqur e'tibor berilmagan. Nisbatan xavfsizligi, ekologik tozaliligi, qulayligi va yuqori terapevtik samaradorligi tufayli lazer texnologiyalari amaliy tibbiyotda tobora ko'proq foydalanib kelinmoqda. Lazer texnologiyalarining tibbiyotda qo'llanilish ko'lamining salmoqdorligini hisobga olgan holda, tibbiyot OTMda lazer fizikasi bo'limining o'qitilish holati quyidagicha tahlil qilindi:


Lazer fizikasi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalar va darsliklarning tahlili, asosan, lazer qurilmalarining texnik parametrlariga va ishlash jarayonlarining fizika qonuniyatlariga qaratilgan bo'lib, lazer fizikasi bo'limining o'qitilish metodologiyasi o'rganilmagan. Jumladan;

N.F.Kashapov tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma (oliy ta'lim talabalari uchun) da lazerning tuzilishi, lazer turlari, lazer nurining xossalari, lazerning tibbiyotda qo'llanilishiga oid ilmiy–nazariy va amaliy ma'lumotlar berilgan. E.V.Xaranjevskiy, M.D.Krivilyovlarning o'quv qo'llanmasi oliy ta'lim talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda lazer fizikasi, lazer texnologiyasi, lazer nurining jismga ta'sirini matematik modellashtirish metodiga oid nazariy ma'lumotlar berilgan. G.Ya.Myakishev, A.Z.Sinyakovlar tomonidan yaratilgan darslikda fizikani chuqur o'rganadigan sinflar uchun mo'ljallangan bo'lib, “Yorug'likning kvantli manbalari-lazerlar” bo'limining kirish qismida lazerlarning yaratilish tarixi, fan va texnikadagi o'rni haqida qisqa ma'lumotlar, shuningdek, induktsiyalangan nurlanish, nurlanishning xususiyatini kvant nuqtai nazaridan tushuntirilgan hamda lazerlarning

ishlash printsiplari, yoqut lazerining tuzilishi, lazer turlari va qo‘llanilish sohasiga oid boshlang‘ich ma‘lumotlar berilgan. K.A.Tursunmetov maqolalarida lazerlarning asosiy turlari, ularning parametrlari va qo‘llanilish sohasiga oid ma‘lumotlar berilgan hamda qattiq jisimli lazerlarning tuzilishi, ishlash printsiplari neodim lazeri misolida yoritib berilgan.

Shuningdek, lazer nurini skanirlovchi qurilma, uzluksiz va impulsli tarzda ishlovchi deflektorlar, jumladan, elektrooptik deflektor, akustooptik deflektor va pezo‘zgartirgichga oid nazariy ma‘lumotlar yoritilgan. Lazer texnologiyasida sodir bo‘ladigan fizik jarayonlarni fizikaviy modellashtirish asosida o‘qitish metodi xorijlik tadqiqotchi olimlar D. B. Hann, J.Iammi and J.Folkeslar tomonidan o‘rganilgan. Jes Henningsen o‘z tadqiqot ishlarida spektroskopiya: lazer nurlanishi va uning tezlik tenglamasiga asoslanganligi, lazer modeli kabi asosiy tushunchalarning uzviylikini ta‘minlashda integratsion metod sifatida nazariy bilimlarni tajriba ishlari bilan mustahkamlashni taklif qilgan.

Fundamental fikrlash va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishni ta‘minlaydigan metodologik bilimlar tabiiy fanning asosiy qoidalarini va inson bilimlari va faoliyatining eksperimental usulini bilishni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Tabiiy fanlar asoslarini bilish.

Ta‘lim berish jarayonida lazer fizikasi bo‘limini o‘qitish usulidan foydalanib, jarayon ishtirokchilari va jarayonga ta‘sirlashuvchi omillar darajaviyligi bo‘yicha belgilab olish mumkin. Tibbiyot yo‘nalishidagi OTMda lazer fizikasi bo‘limini o‘qitishning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va hodisalarini ierarxik tizim shaklida o‘qitishning psixologik - pedagogik shart-sharoitlari va didaktik omillari o‘rganildi.

Dissertatsiyaning “**Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida lazer fizikasi bo‘limini o‘qitish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida tibbiyot OTMda lazer fizikasi bo‘limining fundamental fan sifatidagi yuqori salohiyati, professional kadrlarni tayyorlash imkoniyatidan yetarli darajada foydalanish masalalari yoritilgan.

Xususan, tibbiyot OTMda lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasi, ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash asosida lazer fizikasi bo'limini talabalarga o'qitishning maqsadlari va sabablari, o'quv jarayonining mazmuni va uni amalga oshirish usullari, o'quv jarayonining natijalari, o'quv jarayoni modelining faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan shartlar kabi metodlarning fizikaviy va amaliy mohiyatini talabalarga yetkaza olish usullari, ta'lim samaradorligini oshirishga ko'mak beruvchi dasturiy vositalar, lazer fizikasi bo'limini o'qitishga asoslangan metodikani amalga oshirishda fizika va kasbiy fanlar o'rtasida yaxlit metodik tizimni tashkil qilish mavzularning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi dars ishlanmalari keltirilgan.

O'quv jarayoni modeli tibbiyot OTMda lazerlardan foydalanish bo'yicha talabalarni tayyorlashning quyidagi taklif qilingan tizimiga asoslanadi. Uni ishlab chiqishda biz oliy ta'lim pedagogikasining asosiy qoidalariga tayandik:

ta'lim jarayonini o'qituvchi va talabani o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qaraydigan ta'lim va o'quv faoliyati birligining asosiy didaktik qonuni; o'qitishning didaktik printsiplari: ilmiy tavsiya, tizimlilik, ko'rinishlilik, mavjudlik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, konkret va mavhumning birligi, bilimning mustahkamligi, individual va jamoaviy uyg'unlik, izchillik printsiplari, umumiy ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash, o'quv materialini tushunish printsiplari; uzluksiz ta'lim olish zarurati; pedagogika inson tarbiyasining predmeti sifatida qaraladi; bo'lajak talaba shaxsining barkamol rivojlanishining ahamiyati.

Ta'lim jarayonining modeli o'quv jarayonining asosiy funktsiyalariga mos kelishi kerak: konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va tadqiqot.

Tibbiyot OTMda lazer fizikasi bo'limini talabalarga o'qitish bo'yicha o'quv jarayoni modelini o'qitish amaliyotiga tatbiq etish, talabalar bilimining fundamental mohiyatini amalga oshirishning yuqoridagi shartiga mos keladigan va eng muhim tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

tibbiyot va biologik fizika kursining kichik hajmiga moslashtirilgan, lazer fizikasi bo'limi asoslari bo'yicha asosiy bilimlarni yetqizadigan maxsus yo'naltirilgan ma'ruzalar turkumini yaratish; tibbiyot fanlari kurslarida, shuningdek, fakultativ kurslarda turli klinik vaziyatlarda lazerlardan foydalanish bilan tanishish uchun ajratilgan akademik soatlar doirasida chuqurlashtirilgan ma'ruzalar tsikllarini yaratish; klinik bo'limlar bilan birgalikda hal qilish uchun lazer tizimlaridan foydalanishni talab qiladigan klinik vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek mustaqil o'rganilgan materialni muhokama qilish uchun seminarlar tashkil etish; lazer tizimlarini o'rganish, lazer nurlanishining asosiy tavsifnomalarini aniqlash va lazer nurlanishining moddalar bilan o'zaro ta'siri parametrlarini hisoblash bo'yicha laboratoriya va amaliy ishlar turkumlarini tashkil etish; laboratoriya va amaliy ishlar tsikllarini yaratish, lazer tizimlarining ishlash printsiplari haqidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish hamda lazerli tizimlar bilan amaliy ishlash ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish; tabiiy fanlar o'qituvchilari va tibbiyot sikllari o'qituvchilari nuqtai nazaridan lazer tizimlaridan foydalanishning klinik usullarini o'rganish, keyinchalik haqiqiy klinik vaziyat va uni hal qilish yo'llarini tahlil qilish uchun terapevtik va jarrohlik amaliyotini tashkil etish; nazariy

bilimlarni chuqurlashtirish, umumlashtirish va kreativ qayta ishlash, amaliy va eksperimental ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish.

Lazer fizikasi bo'limini talabalarga o'qitish samaradorligini oshirish, sifatni yaxshilash va kerakli bilimlarni chuqurlashtirishga erishish, birinchi navbatda, metodologik jihatdan asoslangan uzluksiz ta'lim tizimi tomonidan ta'minlanadi.

Lazer fizikasi bo'limini o'qitish uchun asosiy didaktik o'qitish metodlari quyidagilar bo'lishi kerak:

- **ma'ruza o'qiyotganda** - lazerlarning ishlashi va elektromagnit nurlanishning modda bilan o'zaro ta'sirining asosiy printsiplarini ishonchli, asoslantirilgan taqdimoti, mavjud muammolarni va ularni hal qilishning mumkin bo'lgan usullarini majburiy aniq shakllantirish, iloji bo'lsa, vizual, material namoyish qilish;

- **seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda** – mavzuning eng murakkab masalalarini tahlil qilish va muhokama qilishga muammoli yondashish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rgatish metodikasi, talabalarning kreativ faolligini rivojlantiruvchi usullar;

- **laboratoriya va amaliy ishlarni bajarishda** - ko'rgazma - eksperiment paytida harakatlarni namunali bajarish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ko'nikma, malaka, va kompetentsiyalarni shakllantirish va tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlaydigan mashqlardan foydalangan holda o'qitish usuli tashkil qilish;

- **klirik bo'limlar** bilan birgalikda integratsiyalashgan darslarni o'tkazishda ish o'yinlari metodi umumiy tabiiy ilmiy va klinik mazmundagi masalalarni aniq farqlash bilan bir vaqtda vazifani bir butun sifatida ko'rib chiqadi;

Albatta, har qanday o'qitish jarayonining samarasi uni qanday uyushtirilganligiga bevosita bog'liq. Shundan kelib chiqib, oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qitish jarayoni nimalarga bog'liq ekanligini aniqlab olaylik. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'qitish metodlarini tanlash: bilim asoslari bilan dastlabki tanishtirishga mo'ljallangan metodlar; bilim mazmuni o'zlashtirishga bag'ishlangan metodlar; bilimning ma'nosini aniqlashga va mustahkamlashga taalluqli metodlar; bilimni rivojlantirishga va uni amalda qo'llashga o'rgatuvchi metodlar va boshqalar.

2. O'qitish vositalarini tanlash: darslik bilan ishlash; ko'rgazmali vositalarni tanlay bilish; audiovizual vositalarni qo'llashga ma'lumot beruvchi materiallarni tayyorlash va tanlash, o'quv asbob-anjomlarini tanlash; kompyuter vositalarining imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan foydalanish va boshqalar.

3. Talabalarning o'quv ishlarini uyushtirish shakllarini tanlash: ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, seminar, laboratoriya ishlari, mustaqil ishlar, konsultatsiya, o'qitishning noan'anaviy usullari.

4. Talabalarning o'quv ishlari natijasini tekshirish va baholash: ularning yangi bilimlarga ega bo'lish tayyorgarligini tekshirish va baholash; o'quvchi va talabalarning kundalik va modul bo'yicha bilimni tekshirish; ularning bilim reytingini o'qitish bosqichlari bo'yicha tekshirish va baholash; og'zaki, yozma, kompyuter yoki blank yordamida test o'tkazish va boshqalar.

Lazer fizikasi bo'limini o'qitish bo'yicha taklif etilayotgan tizim quyidagi uchta tizimni o'z ichiga oladi:

Maqsadlarning quyi tizimi, chuqur professional bilimlarga ega bo'lgan talabalarni uzluksiz tayyorlash bilan amalga oshirilishi kerak bo'lgan maqsad va vazifalar qayerda aniqlanadi?

ta'limning asosiy yo'nalishini kuchaytirishda; lazer fizikasi asoslari va elektromagnit nurlanishning klinik fanlar bo'yicha moddalar va maxsus bilimlari bilan o'zaro ta'sirining fizikaviy asoslari bo'yicha asosiy bilimlarning birligini ta'minlashda; talabalarda lazer fizikasi bo'limining ilmiy mazmunidan kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va ko'nikmalarini shakllantirishda; ta'limning intensivligini ta'minlash orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish; turli xil mustaqil ishlardan foydalangan holda talabalarining bilim qiziqishlari va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda; eksperimental bilish usulini o'zlashtirish uchun sharoit yaratishda.

Vositalar quyi tizimi, lazer fizikasi bo'limining mazmuni va o'quv jarayonining tashkiliy imkoniyatlari.

- **Ma'ruza darslari:** I va II kurs talabalari uchun lazer bilan ishlashning umumiy printsiplari, nurlanishning moddalar bilan o'zaro ta'siri asoslari va lazer tizimlarini tibbiyotda amaliy qo'llashning ayrim masalalari bo'yicha kirish ma'ruzalari; maxsus lazerlarning ishlash tamoyillari, lazer nurlanishining turli to'qimalar bilan o'zaro ta'siri bilan shug'ullanadigan klinik bo'limlar bilan birgalikda o'tkaziladigan chuqurlashtirilgan ma'ruzalar tibbiyotning terapiya, jarrohlik va diagnostika kabi sohalarida lazerlardan foydalanishni aniqroq muhokama qiladi;

- **Seminar mashg'ulotlari:**

I va II kurslarda - murakkab nazariy masalalarni tahlil qilish va muhokama qilish va eng oddiy amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, mustaqil ish elementlarini tashkil etish;

III va IV kurslarda - lazerli tizimlardan foydalangan holda klinik vaziyatlarni hal qilishning turli usullarini tahlil qilish va muhokama qilish, olingan asosiy bilimlarga asoslangan holda, hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaliy ko'nikmalarini ishlab chiqish va mustahkamlash.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar: lazer tizimlarini o'rganish, lazer nurlanishining asosiy xususiyatlarini aniqlash, lazer nurlanishining parametrlarini va nurlanishning moddalar bilan o'zaro ta'sirini hisoblash bilan bog'liq umumiy maqsad; ilmiy - tadqiqot ko'nikmalarini amalga oshirilishi va tematik sikllarga birlashtirilgan lazer tizimlari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan murakkab tavsifdagi kasbiy maqsadlar;

Natijalarning quyi tizimi, Tibbiyot OTMda lazer fizikasi bo'limi bo'yicha talabalarni uzluksiz tizimli tayyorlash jarayonida erishilishi kerak bo'lgan o'quv jarayonining natijalari oshkor etiladi:

- **Bilim ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar:**

lazer fizikasi asoslarini va elektromagnit nurlanishning modda bilan, xususan, tibbiy va biologik ob'yektlar bilan o'zaro ta'sirining fizik asoslarini bilish; fotokimyo va fotobiologiyaning alohida masalalarini bilish; tibbiyotning turli sohalarida

lazerlarni maxsus qo'llash masalalarini bilish; lazer tizimlari bilan ishlashda lazer nurlanishining dozimetriya va xavfsizlik texnikasini bilish; lazer nurlanishining parametrlarini aniqlash va hisoblash qobiliyati; lazer nurlanishining biologik to'qimalar bilan o'zaro ta'sirining parametrlarini hisoblash qobiliyati;

Tibbiyot OTMda lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida oliy ta'limda lazer fizikasi bo'limini o'qitishning modeli tuzildi va mazkur metodikani quyidagi uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz (2-rasm):

- 1 -bosqich – lazer fizikasi bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalar shakllantirish;
- 2 - bosqich – metodik bilimlar tizimini shakllantirish;
- 3-bosqich –ilmiy - tadqiqot evristik faoliyat tizimini shakllantirish.


Lazer fizikasi bo'yicha nazariy bilimlar tizimini shakllantirish bosqichining maqsadi ta'lim jarayonining elementlarini va ularning aloqasini aniqlash bo'lib hisoblanadi. Ma'ruza mashg'ulotlarida mavzuga doir tushunchalar tizimi shakllantiriladi, amaliy mashg'ulotlarda tayyor formulalar bo'yicha masalalar ishlanadi, laboratoriya ishlarida ma'lum bir lazer fizikasi qonunlarining to'g'riligi tasdiqlanadi. Mustaqil ishlar sifatida o'quv axborotini qayta ishlash, yanada ko'proq ma'lumotlar bazasini to'plash vazifalari beriladi. O'quv rejasi fanlarni o'zlashtirish butun o'qish davri davomida uzluksiz ketma-ketlikda borishi asosida tuziladi. Lazer fizikasi bo'limini o'qitishga asoslangan metodikani amalga oshirishda mutaxassislik fanlariga oid tayanch tushunchalar muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi va uchinchi bosqichlarda ta'limning fundamental fanlar va ixtisoslik fanlar integratsiyasida samarali ta'limni amalga oshishi mumkin. O'quv axborotlarini tanlashda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish masalasi dolzarb bo'lishi kerak. Mazkur bosqichlarda talabalarda tizimli kompetentlikning quyidagi asosiy tashkil etuvchi elementlarining faol shakllantirilishi kuzatiladi:

1. Tabiiy, fundamental va ixtisoslik fanlari bo'yicha bilimlar integratsiyasi.
2. Axborot texnologiyalaridan foydalana olish malakasi.
3. Kommunikativlik va hamkorlikda faoliyat olib borish ko'nikmasi.
4. Tajriba tafakkur qilish qobiliyatini va mustaqil bilim olishni rivojlantirishga ijobiy munosabat.

Ushbu bosqichda yuqorida keltirilgan tashkil etuvchilarning shakllantirilishi fundamental fanlarni o'rganish, tadqiqot yo'nalishidagi laboratoriya ishlarini bajarish, ilmiy-tadqiqot ishlari faoliyatiga talabalarning keng miqyosda ishtirok etishi orqali ro'y beradi.

Lazer fizikasi bo'limini o'qitishda ma'ruza mashg'ulotlarini o'quv materiali mohiyatini ochib berishda "Mental xarita" ta'lim texnologiyasidan foydalanildi. "Mental xarita" ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'qituvchiga vaqtni tejash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, mavzuni muhokama qilish va mulohaza yuritish uchun yetarlicha vaqtga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Mental xarita texnologiyasida quyidagicha bosqichlarni amalga oshirish tavsiya qilinadi (3-rasm): ishlarini bajarishda ilmiy



4. Lazer fizikasini o'qitishda kasbiy kompetentlikni aniqlash mezonlari

Motivatsion

Kognitiv

Faoliyatli

Intellectual

Lazer fizikasi bo'limini o'qitish mohiyatini anglash

Zamonaviy lazer texnikasi bilimlarni o'zlashtirish


ATlari vositasida fizikaviy qonun yoki hodisaning model larini yaratish

O'quv topshiriqlariga yechimlar topish, amaliyotga qo'llash

5. NATIJA: Talabarlarda lazer fizikasi bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi, tibbiyot OTMlarda lazer fizikasini o'qitish samaradorligi ortadi.

2-rasm. Tibbiyot OTMda lazer fizikasi bo'limini o'qitishning takomillashgan modeli.

3.1-bosqich - faollashtirish, bu bosqichni amalga oshirishda “Muammoli vaziyat” metodidan foydalaniladi.



3-rasm. Mental xarita texnologiyasi asosida lazer fizikasi bo‘limini o‘qitish jarayonining sxemasi.

“Muammoli vaziyat” metodi – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

3.2-bosqich-inkubatsiya bosqichi deb nomlanadi, lazer fizikasi bo‘limini o‘qitishda ilmiy bilimlar va amaliy tajribalarning inson faoliyatidagi integratsiyasi bo‘lib, talabanning o‘rganayotgan dars materialini aks ettiruvchi mental xaritalarni tayyorlashga moslashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon davomida talabalarning mantiqiy tafakkur qilish mexanizmiga ta’sir qiluvchi intellektuallik, kreativ-

yaratuvchanlik kabi vaziyatlarga moslashuvchanlik qobiliyatlari elementlari rivojlantiriladi.

3.3-bosqich-Insayt (zakovat). Axborotlarni o'zlashtirishni tashkil etish. Bu bosqichdagi yetakchi usullardan biri namoyishlar usuli asosida bilimlarning kontseptual yaxlitligi boyitiladi. Bunda talabaning qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish qobiliyatlarining shakllanishi bilish jarayoniga integratsiyalanadi.

3.4-bosqich—aprobatsiya. O'quv mashg'ulotida o'rganilgan mavzu asosida talabalar tomonidan mental xaritalarni tuzish orqali lazer fizikasi qonuniyatlarini tasnifli mushohada qila olish, fanni chuqur o'rganish, fanlararo uzviylikni ongli ravishda anglash kabi ko'nikmalar shakllanadi.

3.5-bosqich —tahlil. Talabalar tomonidan tuzilgan mental xaritalar taqdimoti, ularning mazmuni va dizaynini muhokama qilish. Talabalarning xatolarini tuzatish. Keyinchalik o'qituvchi o'zining mental xaritasini namoyish qiladi va talabalarning kreativ mahsuloti bilan taqqoslaydi. Bu o'quv mashg'ulotida o'rganilayotgan hodisa va ob'yektlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash ko'nikmasi shakllanishigi yordam beradi.


3.6-bosqich— refleksiya (tafakkur). Ushbu bosqichda faoliyatning o'z-o'zini tahlil qilishi amalga oshiriladi, shu tufayli har bir talaba mental xaritalarini baholash mezonlaridan kelib chiqib, kutilgan natijaga erishish darajasi haqida xulosa qiladi va fanni o'zlashtirish bo'shliqlarini to'ldirishga yo'naltirilgan differentsial muhitda diagnostik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Lazer fizikasi bo'limini o'qitish metodikasi asosida amaliy mashg'ulotlarni olib borishda evristik kreativ topshiriqlar metodidan foydalanildi. Yangi o'rganilgan fizik qonuniyatlar talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligida umumlashtirilib, bu metod evristik suhbat borasida muammoli masala va topshiriqlarni yechish yo'li bilan amalga oshiriladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida qurilmalarning umumiy tuzilishi, ishlash jarayoni, ishni bajarish, natijalarni solishtirish, taqqoslash, tahlil va sintez qilish, xulosalar chiqarish bilan bog'liq tadqiqotli topshiriqlar usullaridan foydalanildi. Ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan nazariy va amaliy tavsifga ega muammoli topshiriqlar qo'yildi. Talaba bunday pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlarga duch keladi va guruh bilan hamkorlikda o'qituvchi yordami bilan masala yechimini topadi.

O'qitish jarayonida bu xususiyatlar o'qitishning maqsadiga ko'ra o'zgaradi. Amaliyotda, talabaning o'qishga ko'ngli yo'q, o'qishni xohlamaydi, agar to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, yaxshi o'qib ketish imkoniyati bor degan so'zlarni ko'p eshitamiz. Buning sababi nimada? - degan savol tug'iladi. Bizning fikrimizcha, buning sababi, talabaning maqsadini o'zining maqsadi bilan uyg'unlashtira olmaganidadir. Albatta, o'qituvchining maqsadi o'qitishning maqsadiga mos kelishi kerak. Shuning uchun, o'qitish metodining xususiyati, o'qituvchining maqsadi bilan talabaning maqsadini mos kelishini taqozo qiladi (4-rasm).

1. O'qituvchining maqsadi. Bu o'qitishning maqsadi bilan mos keladi. 2. Kerakli vositalarni qo'llash bilan qilinadigan o'qituvchining harakati. 3. O'qituvchining harakati ta'sirida paydo bo'lgan talabaning maqsadi. 4. Kerakli vositalarni qo'llash bilan qilingan o'qituvchining harakati. Bu harakat o'qituvchining

rahbarligi va ko'rsatmasi bo'yicha amalga oshirilishi kerak. 5. O'qituvchining va o'zining harakatlari tufayli talabaning ongi va bilimining o'zgarishi. 6. Maqsadga erishish va o'qitishning natijasi.



4-rasm. O'qitish metodining modeli.

